



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2025/1 (14)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зохилов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Xaydarova J.A. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati.....4

SOTSILOGIYA

Muxamedjanova L. Oilaviy munosabatlarda yuksak ideallar – adolat, muhabbat, do‘stlik, birodarlik, o‘zaro hurmat-izzat tamoyillari.....12

Axmedova D.O. Mehnat migratsiyasi feminizatsiyalashuvi: xotin-qizlar psixologiyasi va ijtimoiy identifikatsiya19

Vaxidova S.A. Gender rollarining evolyutsiyasida ta‘lim institutining o‘rni: avlodlararo ijtimoiy tahlil.....26

Komilova X.T. Xotin-qizlar ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining sotsiologik tahlili37

Xudoyberdiyeva M. O‘smir yoshlarda kitobxonlik tushunchasi va kitob o‘qishni rag‘batlantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari tahlili.....42

Alimasov V.A. O‘zbekistonning oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi (ijtimoiy-falsafiy yondashuv).....47

Samanova Sh.B. Ekologik sivilizatsiya rivojida inson-tabiati munosabatlarining o‘zgarib borishi53

OILA VA JAMIYAT

To‘rayev O.B. Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlik holatiga demografik omilning ta‘siri.....59

Saipova M.L. Migratsiya daxl qilgan oilalarda voyaga yetayotgan o‘smirlarda o‘z-o‘zini dolzarblashtirish jarayoni.....68

Abduraximova F.Y. Oilalarda ma‘naviy qadriyatlar vositasida xotin-qizlar faolligini takomillashtirishning innovatsion usullari.....73

Ganiyev A.A. The role of pre-migration expectations in post-migration stress among Uzbek immigrants in Russia77

Toshmurodov M.I. Oilaviy qadriyatlar va ularni harakatlantiruvchi determinantlar tasnifi82

PSIXOLOGIYA

Bo‘riyeva M.Sh. Oila institutini mustahkamlashning psixologik aspektlari88

Yangiboyeva D.R. Ko‘p bolali oilalardagi shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari93

Raximova X. Oilada shaxsdagi stress va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik moddiy yetishmovchilik hissini yuzaga keltiruvchi psixologik omil sifatida99

Nasrullayeva A.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixosotsial determinantlari104

Sultanova S.M. Ayollarda aybdorlik hissi vujudga kelishining sabablari110

Абдуганиева Д.А. Влияние семейного микроклимата на эмоциональное состояние личности в контексте тревожности115

Асанова Г.М. Процессы социально-психологической адаптации родителей детей, больных онкологией122

Olimjonova Z.B. Sevgining ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida xorij olimlari tomonidan tadqiqi...128

Sharipova A.S. Analysis of the features of adaptation of adolescents to society in conditions of living in a family with violence136

PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida oilaning ta‘limiy funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan tahlil va tavsiyalar.....141

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Hojiyev R.B. Talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan qizlarni qo‘llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish masalalari (Turkiya tajribasi misolida)147

Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorligining ilmiy tahlili.....154

Bakirova N.B. Professional ta‘lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta‘minlash mexanizmlari....161

Мусаева М.И. Ранняя реабилитация и социализация детей с двигательными нарушениями168



Viktor Aleksandrovich Alimasov,
falsafa fanlari doktori,
O'zbekiston DSMI professori

O'ZBEKISTONNING OILA VA XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYASI (IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlari, strategik vazifalari ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: oila, xotin-qizlar, gender, huquq, erkinliklar, davlat, ish, yordam.

Аннотация. В данной статье раскрываются стратегические задачи и реформы осуществляющие Узбекистаном в области поддержки института семьи и женщин.

Ключевые слова: семья, женщины, гендер, право, свобода, государство, работа, поддержка.

Annotation. This article reveals Uzbekistan's ongoing reforms and strategic objectives in supporting the institution of family and providing assistance to women.

Key words: family, womens, gender, law, freedom, goverment, work, support.

Kirish. Ijtimoiy taraqqiyoti va kelajagini ko'zlaydigan har bir xalq, davlat oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashni demografik siyosatining negizi hamda strategik vazifalaridan biri deb biladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlaridayoq oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berdi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yili qabul qilingan Konstitusiyasida oila va uni institutsional mustahkamlashga qaratilgan XIV bob kiritildi, 1998-yili esa Oila kodeksi qabul qilindi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning keyingi yetti yil ichida oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid 60dan ziyod farmon va qarorlari, hukumatimizning 70dan oshiq dasturi qabul qilindi.

Respublika fuqarolar yig'ini qoshida xotin-qizlar bilan ishlovchi xodim, viloyatlarda ayollarga psixologik yordamlar ko'rsatish markazlari, reproduktiv salomatlik markazlari tashkil etildi. 2024-yil oktabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanganlarning 32 foizi ayollar bo'ldi. Bu Xalqaro ko'rsatkichlardan ham yuqori. Biroq real hayotimizda salbiy hodisalar ham ko'p: ajralishlar yiliga 11-12%ga, ba'zi hududlarda 30-40%gacha yetadi, ayollarning iqtisodiy jinoyatlari ham yildan yilga oshib bormoqda, oiladagi zo'ravonlik va qotillikka Internetdan istagancha misollar keltirish mumkin. Ushbu salbiy hodisalarning ildizini, ularni kamaytirishning samarali yo'llarini topish – ilmfanning vazifasidir.

Maqsad va uni asoslash. Tadqiqot maqsadi oila institutiga xavf solayotgan salbiy hollar va ularning negizlarini aniqlash, bu borada sotsiologik manbalarga murojaat etish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy mexanizmlarini topishdir. Shuningdek, mazkur maqola oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashni maqsadli va manzilli qilish, davlat strategiyasida ko'rsatilgan imkoniyatlardan samarali foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ilmiy maqsadni asoslash uchun rasmiy va ilmiy manbalarga, sotsiologik so'rovnoma va ekspertlar xulosalariga, o'zbek oilasi muammolarini maxsus tadqiq qilgan oilashunoslarning prognozlar va tavsiyalariga tayaniladi. Bu o'rinda, avvalo, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning va hukumatimizning muammoga oid strategiyasiga, undagi fundamental ko'rsatmalariga asoslaniladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. O'zbekistonning oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyoti, ya'ni Yangi O'zbekistonni va ijtimoiy davlatni barpo etishning tarkibiy qismidir. Biroq oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi o'zining immanent xususiyatlari va vazifalarga ega. Ular tadqiqot maqsadi va tasnifiga muvofiq quyidagilardir:

- oila instituti va xotin-qizlar duch kelayotgan muammolar hamda ularning negizlarini aniqlash;
- oila instituti va xotin-qizlar masalalariga oid davlat dasturlari holda qarorlaridagi vazifalarni ochib berish;
- oila instituti etnoqadriyatlaridagi transformasiyalarni o'rganish;
- xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlash, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish borasidagi milliy tajribalarni umumlashtirish;
- mavjud muammolarga yechimlar izlash va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Keyingi yillarda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida ibratli ishlar amalga oshirildi. Masalan, 2024-yilda xotin-qizlarning ishsizligi to'rt yil oldingi hisobdan ikki barobarga qisqardi. Gender tenglikni ta'minlash, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu bilan birga, mamlakatimiz hukumati tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – xotin-qizlarni har tomonlama

qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etishga qaratilgan bo'lsa-da, ba'zi jarayonlar islohotlar shiddatidan orqada qolayotgandek, nazarimizda.

Bugun Respublikamizda 8,5 millionga yaqin oila mavjud. Xotin-qizlarimiz soni 18 millionga yaqin. Respublikamizda ijtimoiy demografik o'sish jadal bormoqda, ayrim prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib aholimiz soni 40 millionga yetadi. Bu o'sish davlatimiz oldiga qator muammolarni qo'yadi.

Birinchidan, agar yuqoridagi demografik o'sishdan kelib chiqsak, oilalarda oshib borayotgan ajralishlar farzand ko'rishga to'siq bo'la olmasligini anglaymiz. Ajrashganlarning, ayniqsa, erkaklarning 70 – 75 foizi bir yil o'tmay qayta uyulanadi.

Ikkinchidan, aholimiz sonining jadal o'sishi pozitiv hodisami? Uni rejalashtirish zarur emasmi? Xitoy shu tarzda oilani rejalashtirish siyosatini olib borgan edi, hozir Xitoyda ikki farzand ko'rishga ruxsat berilgan. Bu ham rejalashtirishdir. Biz ham shunday qilishimiz mumkinmi? Bizning fikrimizcha, farzand ko'rishni davlat orqali rejalashtirish teskari natija beradi. Oilada ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanishga o'tish farzand ko'rishni rejalashtirishning eng maqbul yo'lidir.

Uchinchidan, “farzand ko'rish oilanini qashshoqlashishga olib keladi”, degan fikr takrorlanadi. U rasmiy manbalarda uchramasa-da, turmush madaniyatida tez-tez takrorlanadi. Bizning fikrimizcha, bu qashshoqlik negizi bo'la olmaydi, chunki 2/2 nuklear oilalarda ham juda badavlat holda yashash kuzatilmaydi. Nari borsa, bunday oilalar yengil avtomobili bilan farqlanishi mumkin. Demak, oilalar inoq va baxtli yashashi, xotin-qizlar duch kelayotgan muammolar “farovonlik, oilani rejalashtirish bilan bog'liq”, degan fikr bahslidir.

Davlat dasturlarida oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga keng jalb etishga katta e'tibor beriladi. Masalan, “Har bir oila – tadbirkor” davlat dasturiga ko'ra, 2023-yilda 496 ming nafar xotin-qizga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 9,7 trln so'm kredit, 108 mingdan ziyod xotin-qizga asbob-uskunalar uchun subsidiya ajratilgan. Natijada O'zbekistonda tadbirkor ayollar ulushi 37%ni tashkil etgan. Shu yili 872 mingdan ortiq xotin-qizning bandligi ta'minlangan, 250 mingdan ziyodi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatilgan, 14 ming nafarga yaqin ayollarning uy sharoiti yaxshilangan.

“Ayollar daftari” doirasida salkam 642 ming nafar xotin-qizga amaliy yordam ko‘rsatilgan. Agar mamlakatimiz mehnat resurslarining 45 foizi xotin-qizlar hissasiga to‘g‘ri kelishini eslasak, yuqoridagi chora-tadbirlar qanchalik strategik muhim ekaniga ishonch hosil qilamiz¹.

Shu bilan birga, mutaxassislarining ta‘kidlashicha,

Birinchidan, barcha xotin-qizlarda ham mehnatga munosabat aniq shakllanmagan. Davlatimiz yaratayotgan imkoniyatlarga qaramay, ishsiz ayollarning uchdan biri hech qayerga murojaat etmaydi².

Ikkinchidan, iqtisodiy faollikka xalaqit beruvchi omillardan biri oila, turmush yumushlaridir. Bugun madaniy-maishiy xizmatlarni kam vaqt sarflab amalga oshirish mumkin bo‘lsa-da, makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, aksariyat ayollarimiz vaqtining 22 foizini uy ishlariga sarflaydi³.

Uchinchidan, oila yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan band bo‘lishni o‘zbek ayollari o‘zining etnomadaniy qadriyatlariga aylantirgan. Ulardan voz kechish oson emas. Mazkur muammoning yechimi, bizning fikrimizcha, xotin-qizlarni qiziqarli, ularning didiga va ko‘nikmalariga muvofiq keladigan kasb-korlarga o‘rgatishdir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pincha ayollarga zavqsiz, zerikarli va maoshi past ishlarni taklif qilinadi, bu ularda ijtimoiy mehnatga qiziqishni so‘ndiradi. Biz davlat dasturlaridagi imkoniyatlardan xotin-qizlarni shunchaki band qilish uchun emas, balki ularning qiziqishini, ijtimoiy faolligini oshiradigan jihatlardan foydalanishimiz zarur. Ijtimoiy mehnat ularga zavq keltirishi, faolligini oshirishi va faxr uyg‘otishi kerak.

Shuningdek, davlat dasturlarida ayollarning reproduktiv salomatligini ta‘minlash, oilaga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, gender tenglikka erishish, kasb-kor o‘rganish, ilmiy va badiiy ijod bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yaratib berish kabi strategik ahamiyatga ega vazifalar ham qo‘yilgan. Ular O‘zbekiston oila instituti va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasining chin mohiyatini ko‘rsatadi. Masalan, birgina 2018-yili yurtimizda 817 ta qishloq va vrachlik punkti, 798 ta qishloq

¹ Ayol – oila va jamiyat // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 11-avgust.

² Egamberdiyeva N. Ayollari shodon yurtda baxtli avlod ulg‘ayar // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 9-iyun.

³ Ayol – oila va jamiyat // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 11-avgust.

va 178 ta shahar oilaviy poliklinikalarida ayollar maslahatxonalari, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar, kun-u tun ishlaydigan tez tibbiy yordam shoxobchalari tashkil qilingan⁴. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

O‘zbek oilalari etnoqadriyatlarining barqarorligi bilan ajralib turadi. Ular o‘zbekona turmush tarzi, oilaviy hayoti, diaxron aloqalar, qarindoshchilik an‘analarining yadrosini tashkil etadi. Falsafa fanlari doktori, professor O.Nishonovanning yozishicha, aynan etnoqadriyatlar oila institutini mustahkam, barqaror qilib, er-xotin va diaxron munosabatlarni ma‘naviy-axloqiy normalar, imperativlar doirasida ushlab turadi. Shu nuqtayi nazardan etnoqadriyatlar o‘zbek xalqi madaniyatining yadrosidir⁵. Ammo davr, ayniqsa, globallashuv va integratsiya etnoqadriyatlarga ta‘sir qilayotganini ko‘ramiz. Masalan, o‘zbek xalqida yoshlarning ota-ona ijozatisiz oila qurishi odat bo‘lmagan. Bugun xorijda ta‘lim olayotgan yoki ishlayotgan o‘zbek yigit va qizlari o‘z xohishlari bilan oila qurmoqda. Bir-ikki farzandli bo‘lgach, ota-onasini, kuyov (kelin) bilan tanishtirishadi. Nikohdan oldin o‘tkaziladigan patir sindirish, unashtirib qo‘yish, qudalarni so‘rab-surishtirish, uy-joy tayyorlash, maslahatga chaqirish kabi marosimlarga hojat qolmaydi. Mazkur transformatsiya jarayonlari oila internatsionallashuvi doiralari kengayayotganidan darak beradi. Yoshlarning bir-birini “topib” oila qurishi pozitiv hodisa, albatta. Biroq bunday oilalar qanchalik mustahkam? Ular G‘arb oilalaridagi individualizm, ommaviy madaniyatning destruktiv ta‘siridan qanchalik uzoq, xoli? Bu borada ilmiy izlanish, prognozlar yo‘q.

Birinchidan, oilaviy etnoqadriyatlaridagi transformatsiya jarayonlari globallashuv va integratsiya avj olgan sayin yanada kengayadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston chet ellardagi fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta‘minlash bilan izchil shug‘ullanishi darkor.

Uchinchidan, fuqarolik, mehnat yoki yashash huquqi buzilganida xorijdagi yurtdoshlarimiz O‘zbekistondan zarur yuridik ma‘lumotlarga ega bo‘lishi va xizmat turlaridan foydalana olishi shart. Oilasi yoki farzandlarini ona yurtiga olib kelmoqchi bo‘lgan yurtdoshimiz o‘z maqsadiga erishish imkoniyatlariga ega bo‘lishi lozim.

⁴ Qarang: “Xalq so‘zi”, 2019, 10-noyabr.

⁵ Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2008.

Xotin-qizlarning teng huquqliligini ta'minlash, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish borasidagi milliy tajribalarni umumlashtirish muammoni aniq tasavvur etish uchun lozimdir. Ilmiy tadqiqot ratsional yondashishni, obyektning real holatini o'rganib, uni ideal holat tomon yetaklashni taqozo etadi⁶. Bugun o'zbek oilalari, ayniqsa, shaharlarda ikki-uch avlodlidir. Ayrim qishloq joylarida to'rt-besh avlodli oilalar uchraydi⁷.

Ko'p avlodli oilalarda yashash o'zbek xalqi milliy tajribalardandir. Maxsus kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p avlodli oilalarda ahillik, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash, fidoyilik yuqori bo'ladi. Ularda diaxron aloqalar va subordinatsiya milliy xususiyat, etnomadaniy qadriyat sifatida qabul qilinadi. Ushbu milliy xususiyatlar va tajribalarni o'rganish zamonaviy nuklear oilalar duch kelayotgan psixologik va pedagogik muammolarga yechim topish imkonini beradi. Milliy tajriba deganda, boshqa xalqlar tajribalari ham nazarda tutiladi. Masalan, Vyetnam, Meksika Indoneziya va Fillipinda 2016-yili tashkil etilgan "start up" loyihalari natijasida gender notenglik bartaraf etilgan. AQShda ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus bank, Kanadada esa ayollar tadbirkorligi strategiyasi (Women Entrepreneurship Strategy – WES) qabul qilingan⁸.

Misrda yettita farzand ko'rish etnomadaniy an'ana hisoblanadi. Ayollar salomatligini ta'minlash – davlat strategiyasidagi asosiy vazifalardan biri. Shuning uchun, Misr ayollarining sihat-salomatligi Angliya ayollarinikidan yuqori. Ayollarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki 33,6%dir.

Urbanizatsiyalashayotgan turmush tarzi nuklear oilalar ko'payishi uchun sharoit yaratmoqda. Bunda G'arb turmush tarzining ta'siri borligini ham inkor qilib bo'lmaydi.

Birinchiidan, milliy tajribalar nafaqat etnografik manba, shu bilan birga, oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy, samarali usullarini topish imkoni hamdir.

Ikkinchiidan, o'zbek oilasi boy etnomadaniy tajribalarga ega. Ayniqsa, oilada barqarorlik va osoyishtalikni ta'minlash, diaxron aloqalardagi

sotsiopedagogik tajribalardan foydalanish hanuz ahamiyatini yo'qotmagan.

Uchinchiidan, boshqa xalqlardagi pozitiv, zamonaviy tajribalarga murojaat etish, ulardagi gumanitar qadriyatlarni o'zlashtirish oilalar internatsionallashtirishga yordam beradi. Endi oila faqat etnotasavvur va etnostereotiplardan iborat "temir qo'rg'on" bo'lib qola olmaydi.

Mavjud muammolarga yechimlar izlash va zarur tavsiyalar ishlab chiqish orqaligina ilmiy tadqiqot ijtimoiy ahamiyatli intellektual izlanish turidir.

Birinchiidan, yechimlar va tavsiyalar metafizik xususiyatga ega xulosalar bo'lishi mumkin.

Ikkinchiidan, yechimlar va tavsiyalar empirizmga yo'naltirilishi mumkin.

Uchinchiidan, yechimlar va tavsiyalar prognostik xususiyatga ega bo'lib, obyektning ideal holatini oldindan ko'ra bilishga yordam beradi. Obyektni ideallashtirish va shu tariqa modellashtirish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanadi.

Yakuniy qism.

1. Oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash global rivojlanish ko'rsatkichlari va kafolatlaridan biriga aylangan. Dunyo aholisining deyarli yarmini tashkil etgan xotin-qizlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi ishtirokini ta'minlash, asosan, milliy davlatlarning muammoga oid strategiyasiga bog'liqdir⁹. Shuning uchun, BMT milliy davlatlarni diskriminatsiyani bartaraf etish va gender tenglikni ta'minlash bo'yicha strategiya ishlab chiqishga da'vat etadi.

2. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasida oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati ekani ta'kidlanadi. Ushbu strategik vazifani bajarish, avvalo, davlat idoralari zimmasiga yuklatiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning qaror va farmonlarida oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ularga sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish, uy-joy sharoitini yaxshilash, o'qish va kasb-kor orttirish uchun imtiyozlar berish kabilari ta'kidlanadi. Ushbu strategik vazifalar bugun dadil amalga oshirilmoqda.

3. Oila instituti va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash muammolariga siyosiy-huquqiy pog'onadan pastga, ya'ni oila institutiga taalluqli

⁶ Alesasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: metodlari va metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston IIV Akademiyasi, 2016.

⁷ Zohirov R. Oila instituti mustahkamlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati. – Qarshi: "Nasaf", 2022.

⁸ Egamberdiyeva N. Ayollari shodon yurtda baxtli avlod ulg'ayar // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 9-iyun.

⁹ O'razaliyeva G. O'zbekistonda oila instituti faoliyatini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2023.

etnomadaniy qadriyatlar pog‘onasiga tushib yondashishni taqozo etadi.

4. Oila institutining barqarorligi, avvalo, unda amal qilinadigan etnomadaniy qadriyatlar tufaylidir. Etnomadaniy qadriyatlar oila instituti mavjudligining yadrosidir. Ushbu yadro tufayli oila instituti barqaror, ahil va mustahkam bo‘ladi. Biroq globallashuv va integratsiya ta‘sirida oilaviy etnoqadriyatlarda transformatsion o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu o‘zgarishlarni aniq prognoz qilish mushkul, ammo insoniyat yaratgan sivilizatsiyadagi umuminsoniy jihatlar oila institutiga ta‘sir etmay qolmaydi.

5. Oila instituti va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur obyektiv ehtiyojdir. Bu ehtiyoj milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganishni taqozo etadi. Estdan chiqarmaslik kerakki, oila va uni barqaror qilib turgan “yadro” konservatizmga moyildir. Oila ushbu konservatizmga tayangani uchun barqaror institut sifatida saqlanib keladi. Davr o‘tishi bilan deyarli barcha institutlar modernizatsiyalashadi, hatto davlat tarix sahnasidan tushib qolishi mumkin, faqat oila barqaror institut sifatida boqiydir.

6. Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasida milliy an‘analardan foydalanish zarurligi alohida ta‘kidlanadi. Bu milliy identlikni asrash, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan etnotajribalarni oila va yoshlar munosabatlariga singdirish masalasidir. Avlodlar o‘rtasidagi diaxron aloqalarni mustahkamlash oilada bir-biriga mehr, yordam ko‘rsatish, turmush qiyinchiliklariga chidash, er-xotin munosabatlarini oliyjanob qiluvchi axloqiy muhitni shakllantirish kafolatidir. Oiladagi ziddiyatlar, er-xotin o‘rtasidagi tortishuvlar ana shunday axloqiy muhit yo‘qligidan kelib chiqadi. Goho bunday nizolar gender tenglikni noto‘g‘ri tushunish sababli yuzaga keladi. Sharqona oilada erkak oila boshlig‘i bo‘lib kelgani sir emas. Oila boshlig‘iga itoat etish oilada birlik, ahillik va ittifoqni ta‘minlash uchun zarur.

“Oila boshlig‘i, – deb yozadi Abu Ali ibn Sino, – ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o‘zlashtirmog‘i lozim. Agar oila boshlig‘i tajribasiz bo‘lsa, u o‘z a‘zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oilaga, balki qo‘shnilarga, mahalla-ko‘yga ham yomon ta‘sir etishi mumkin”¹⁰.

¹⁰ O‘sha manba.

Bu o‘rinda alloma tarbiyaga urg‘u beradi, oiladagi ahillik ana shu tarbiyaviy ta‘sir tufaylidir.

Oila boshlig‘ining o‘ziga xos obro‘si, hurmati, mavqeyi, zamonaviy iborada “oilaviy imiji” bo‘lishi kerak. Erkak imiji yetakchilikda, oqilona rahbarlikdadir. Hammaga bir xil munosabatda bo‘lishning imkoni yo‘q. Insonda kishilarni bir-biridan ajratish instinkti kuchli. Oila boshlig‘ida ham bu instinkt, albatta, bo‘ladi. Ammo ajratish instinktni jilovlash va ratsional xulq-atvorga aylantirish mumkin. Buning uchun “oilam va yaqinlarim ittifoqi – jamiyat oldida o‘z obro‘sigaga oilam a‘zolarining ma‘naviy-axloqiy birligi” degan tushunchani shakllantirish lozim. Ushbu tushunchasiz oila a‘zolarining bir-biridan ajrati, biridan ikkinchisining ustun qo‘yilishi, begonalashtirilishi davom etaveradi.

Gender tenglikni etnotajribalarga qarshi qo‘yish er-xotin o‘rtasidagi nizolarga sabab bo‘ladi. Tadqiqotchi S.Shakirovaning yozishicha, G‘arb targ‘ib etadigan gender tenglik, feminizm ayolni nafaqat oilasidan, hatto etnomuhitdan ajratishgacha olib boradi. Natijada, gender tenglik g‘oyasi “o‘tgan asrlarda xotin-qizlarning kamsitilganlari va patriarxal tartiblardan alamini olish uchun kashf etilgandek tuyuladi”¹¹. Xotin-qizlar rolini, oiladagi mavqeyini hech kim inkor qilmaydi, o‘zbek tadqiqotchilari xotin-qizlarni go‘zallik, oliyjanoblik va nazokat timsoli ekanini yakdil qayd etadilar. Bu o‘zbek jamiyati shakllantirgan obraz, ijtimoiy portretidir. Bunda falsafa fanlari doktori, oilashunos R.T.Zoirov nazarda tutgan “ayollar shovinizmi”ni ko‘rish mumkin emas¹². Gender tenglik g‘oyasini mutlaqlashtirish salbiy hollarga olib kelishi kuzatiladi. Masalan, E.Sinetskayaning keltirishicha, G‘arb gender g‘oyasiga ishongan Xitoy davlati sud-huquq tizimini ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirdi. Tug‘ish yoki tug‘maslikni ayollar hal qiladigan bo‘ldi, ayolning ruxsatisiz erkak ajrashishi taqiqlandi. Bugun xitoylik erkaklar ayollar shovinizmiga, ya‘ni xotinining do‘pposlashiga, haqoratlashi va uyidan haydalishtirishiga duch kelmoqda¹³. “Bunday hollarni oila negizidagi

¹¹ Шакирова С. Феминизм с Запада на Востока. 10 лет вдохновенного диалога между женским движением Германии и Центральной Азии. – Москва: Центр гендерных исследований, 2008. – С.21.

¹² Zoxirov R.T. Oila institutining etnogenetik va ilmiy-falsafiy asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2022.

¹³ Синецкая Э. Путешествие на Запад китайской женщины, или феминизм в Китае. – Москва: Litres, 2021. – С. 48.

fundamental qonun buzilishini farzand ko'rish, ularni tarbiyalash, diaxron aloqalarni ta'minlash orqali shaxsiy hayotga ma'no baxsh etuvchi stimullar kamaygani bilan ham izohlash mumkin. Xitoyda joriy etilgan bir farzandlilik talabi ana shunday buzilishning natijasi bo'lishi mumkin. Ayol rolining mutlaqlashtirilishi har qanday hodisaning mutlaqlashtirilishi kabi oilaviy munosabatlar tekis kechishiga, bir-birini tushunib, ahil yashashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi"¹⁴. Etnotajribalar negizida esa oila institutini mustahkamlash tamoyillari mujassamdir.

7. Ma'lumki, o'zbek xalqi oila boshqarish, farzand tarbiyalash, diaxron aloqalarda etnopedagogikaga, unda ishlab chiqilgan pand-nasihati, o'g'it, tajriba va texnologiyalarga tayanadi. Vorisiylik tamoyiliga monand ushbu yondashuv boy etnopedagogik merosga tayanishni konservativroq qiladi, buni tan olish zarur. Konservativlikni rad etuvchi mutlaq yangi, radikal tarbiya usuli yo'q. Tarbiyada, oilaviy munosabatlarda barqaror an'analarga, qadriyatlariga tayanmay ahil yashash mumkin emas. R.Z.Zohirov o'tkazgan maxsus tadqiqotlar natijalari ko'rsatadiki, bobo-momolari bor oilalarda etnotajribalarga, barqaror tajribalarga tayanish yuqori. Shunday oilalarda ajrashishlar deyarli kuzatilmaydi. Barqaror etnotajribalar va qadriyatlariga asoslangan konservativlik oila muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ekan. Tadqiqotchi konservativlikni mutlaq, mo'tadil va ijobiy ko'rinishlariga ajratib, davr talablariga moslashib, zamonaviy qarashlarga moyil oilalarga ijobiy konservativizm xos, deb ko'rsatadi¹⁵. Bu

paradoksal holat. Chunki bir tomondan, ijtimoiy hayot, globallashtirish va xalqaro integratsiya ta'sirida urbanizatsiyalashib, mobillashib bormoqda. Innovatsion rivojlanish dadil davom etmoqda.

Kishilarimiz ongi, dunyoqarashi ham o'zgarib, intellektuallashtirish dinamikasi ilg'or davlatlardagi ko'rsatkichlarga yaqinlashib bormoqda. Bu ijobiy o'zgarishlar shu paytgacha uchramagan yangi, mobil ijtimoiy muhit yaratmoqdaki, u bizni industrial jamiyat tomon yetaklaydi. O'zbekiston bugun industrial jamiyat ostonasida turibdi. Shunday ekan, ijtimoiy borliqdagi o'zgarishlar oila instituti va xotin-qizlar hayotiga ta'sir etmasligi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, "bunday o'zgarishlar oila instituti konservativligiga zid emasmi?" degan savolni uyg'otadi. Oila ijtimoiy borliqdagi barcha institutlardan barqarordir. Tarixiy bosqichlarda deyarli barcha institutlar (mulk shakli, davlat, boshqarish usullari, siyosiy tashkilotlar, hududlar, hatto etnoslar) o'zgardi, faqat oila barqaror institut sifatida saqlanib qolmoqda. Ushbu barqarorlik oila institutining konservativligidadir. Bu konservativlikni qoloqlik, dogmatizmga moyillik, mutlaq turg'unlik deb tushunmaslik kerak. Shuning uchun R.T.Zoxirov konservativlikni mutlaq, mo'tadil va ijobiy ko'rinishlarga ajratadi hamda aynan ijobiy konservativlik oila institutiga zamonaviylik, mobillik, dinamizm baxsh etadi, degan xulosaga keladi. Bizning fikrimizcha, oilada barqarorlikni barqaror etnoqadriyatlar shakllantiradi. Bunday barqaror qadriyatlar Respublikamizda oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasida qayd etilgan milliy an'analar va etnotajribalardadir.

¹⁴ O'sha manba.

¹⁵ O'sha manba

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 2-nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Ayol – oila va jamiyat // "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil 11-avgust.
3. Egamberdiyeva N. Ayollari shodon yurtida baxtli avlod ulg'ayar // "Yangi O'zbekiston" gaz. 2023, 9-iyun.
4. Nishonova O. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Alesanov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: metodlari va metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston IIV Akademiyasi, 2016.
6. Zohirov R. Oila instituti mustahkamlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati. – Qarshi: "Nasaf", 2022.
7. O'razaliyeva G. O'zbekistonda oila instituti faoliyatini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2023.
8. Шакирова С. Феминизм с Запада на Востока. 10 лет вдохновенного диалога между женским движением Германии и Центральной Азии. – Москва: Центр гендерных исследований, 2008. – С. 21.
9. Синецкая Э. Путешествие на Запад китайской женщины, или феминизм в Китае. – Москва: Litres, 2021. – С. 48.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U.**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.12.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.